

**ANZUR (ALLIUM SUVORIWII) PIYOZININING YETISHTIRISHNING ILMIY  
ASOSLARI**

**Z.J.Uzoqova**

*ToshDAU magistranti*

**B.Y.To'xtayev**

*ToshDAU b.f.d. professor*

**Annotatsiya:** *Maqlada anzur (Allium suvoriwii) piyozini yetishtirishda turli agrotexnik tadbirlar bilan bir qatorda sug'orish meyorlari, begona o'tlarga qarshi kurashish va uning rivojlanish davri, vegetativ va generativ yo'l bilan ko'paytirish usullari, inson organizmiga bo'lgan foydali ta'sirlari, piyozlarining shakllanishi va ko'payish usullari keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *anzur (Allium suvoriwii) piyozi, vegetative organ, piyozbosh, yer ustki qismi, yer ostki qismi, generative organ, urug'.*

### **Kirish**

O'simlik oilasi turlaridan dorivor va xushbo'y-ziravor o'simliklarni muvaffaqiyatli etishtirish uchun o'simliklarning bioekologik xususiyatlarini, tuproq va iqlim sharoitlarini, agrotexnik tadbirlarga aniq rioya qilinishini hisobga olish zarur. V.T. Stearn andiz piyoz turlarining maksimal soni Markaziy va Kichik Osiyoda o'sishini ta'kidlab o'tgan. Anzur piyozi Alliaceae piyoz oilasiga mansub bo'lib, bir pallali bir pallali gulli o'simliklarning 30 ga yaqin avlodini o'z ichiga oladi. S.S. Litvinov [2014], Markov V.M. (1974) Allium jinsida 400 tur borligini ko'rsatadi va Pivovarov V.F. (1990) 600 turi haqida ma'lumotlar jamlagan. Piyozdoshlar oilasining (Alliaceae) piyoz turkumi (Allium) vakillari turli xususiyatli turlarni o'z ichiga oladi. Ularga: Allium altissimum, Allium Suworowi Allium sarawschanicum Regel, Allium karataviense, Allium stipitatum, va boshqalar.

Piyoz sovuqqa chidamli ekin sifatida O'zbekistonda sharoitda yilning kuz-bahor fasllarida ham o'simlik ekiladi. O'zbekistonda dorivor o'simliklarning 1200 turi mavjud. (X.X. Xolmatov 577 tur) Ushbu turlarning ayni paytda 250 turi ilmiy tabobatda ishlatilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 21 sentyabrdagi 409-son “O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi” Qonuni, O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2017 yil apreldagi PQ-2911-son “Respublika farmatsevtika sanoatini jadal rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5853-son Farmonida « ... oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash va iste'mol ratsionini yaxshilash, talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish»dek muhim vazifalardan biri qilib belgilangan.

Shu maqsadda, men ilmiy izlanishlarimda Anzur (Allium suvoriwii) piyozini ilmiy ob'ekt sifatida tanlab oldim. M.Vahobov tomonidan o'rganilgan anzur piyozi tog'li sharoitlarida o'sishi, rivojlanishi va hosildorligi o'rganildi [6,7,8]. Anzur piyozi




o'simliklarining bioekologik xususiyatlari (fenofazalar muddati, barg, poya va ildiz tizimining shakllanishi), gullashning sutkalik va mavsumiy ma'romlari, urug'larning potensial va haqiqiy mahsulдорligi o'rganildi [10,11,13,14]. Suv rejimining asosiy ko'rsatkichlari, fotosintez va nafas olish jadalligi qiyosiy o'rganilgan. O'simliklarning hosildorligi va fitokimyoviy tarkibi aniqlangan. O'rganilgan o'simlikni yetishtirish texnologiyasi ishlab chiqildi. [9,12,15].

Anzur (*Allium suvorivii*) piyozini havo qismlaridan fetonsid, efir moylari, makro va mikro elementlar va turli antioksidantlarga ega ekanligi haqida turli ma'lumotlar berilgan [16]. Anzur kasalliklari va zararkunandalariga qarshi immunitetni oshiradi, shuning uchun yuqumli, bakterial va boshqa kasalliklarning paydo bo'lishidan qo'rmaslik kerak. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, madaniyat uchun eng katta xavf bu suv almashinuvining buzilishi natijasida yuzaga keladigan chirigan jarayonlardir. Birinchi ko'rinishlarda ta'sirlangan o'simliklar qazib olinadi va sog'lom bo'lganlar uchun sug'orish rejimi o'zgartiriladi.

Bakuras N.S tog' oldi hududlarda Anzur (*Allium suvorivii*) piyozini yetishtirishga qaratilgan tatqiqotlar olib borgan [12]. A.Nasretdinova [13], V.A. Komissarov [14], A.V. Kuznetsova [15] va A.X. Mengniev o'rat osiyo davlatlarinind bir qator viloyatlari o'rmon xo'jaliklari va aholisi tomonidan anzur piyozini yig'ib olishning iqtisodiy samaradorligini yaqindan o'rgangan [16]. Baxobov M tatqiqot ma'lumotlariga ko'ra 1989 yilda 1 tonna anzur piyozining etishtirish rentabellik darajasi 47,5% ni tashkil etdi. Hisor viloyatidagi Chepturinskiy zavodida piyozlarni qayta ishlash natijasida rentabellik darajasi 90,60 foizni tashkil etdi. Ayni paytda respublikamizda 40 tonnaga yaqin anzur piyozi olinmoqda, anzur esa So'g'd viloyatiga qo'shni respublikalardan keladi, xomashyo ushbu yetkazib berishdan yaxshi daromad olayotgan xususiy tadbirkorlar tomonidan sotib olinmoqda.

Dorivor o'simliklar etishtirishning o'ziga xos xususiyatlari o'sish sharoitlari va ularni etishtirish usullari o'zgartirilganda biologik salohiyatining to'liq ro'yobga chiqish jarayonida aniqlanishi mumkin. Bu omillarning o'simliklarga ta'siri o'zaro chambarchas bog'liq bo'ladi. O'sish sharoitlari o'simliklarning moslanuvchan imkoniyatlarini ko'rsatadi, etishtirish usullari ularning biologik ehtiyojlariga moslashtirishga yordam beradi. O'sish sharoitlarini optimal tanlash va etishtirish usullarining natijasi samarali agrotexnologiyalarni qo'llash dolzarb muammo bo'lib xizmat qiladi.

Anzur (*allium suvorivii*) piyozi 4-6 donadan iborat diametri 40-50 sm bo'lgan bandsiz uzun va yo'g'on kamarga o'xshash barglar bilan ajralib turadi. Ularning barg uzunligi 30-40 sm ga etadi, kengligi esa taxminan 4 sm. Barglarning rangi yashil, gulining rangi esa siyohrang va oq bo'ladi.



*I-rasm. Anzur (*allium suvorivii*) piyozining guli*

Anzur (*allium suvorivii*) piyozi – piyozdoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik. Bir joyda o‘simlik biologik xususiyatlarini yo‘qotmasdan 5-7 yilgacha o’sishi mumkin. Anzur (*allium suvorivii*) piyozida ildiz tizimi o‘simlikning yoshiga qarab diametri 3-10 sm bo‘lgan sharsimon piyozdir. Undan ildiz kurtaklari chiqib ketadi, uning vazifasi tuproqdan oziq moddalar va namlikni o’zlashtirishdan iborat. Gullash davri may oyining ikkinchi yarmida yoki iyun oyining boshida boshlanadi.

Shundan so‘ng tuxumdon hosil bo‘ladi. Anzur (*allium suvorivii*) piyoz urug'lari ko‘p jihatdan sarimsoqga o‘xshaydi. Ular may oyining oxirida pishib etiladi. Shundan so‘ng barglari va poyalari keskin quriydi va uyqu davri iyun oyining oxirida boshlanadi, bahorgacha davom etadi. Suvorov piyozi yoki Anzur (*Allium suworowii*) ko‘plab bog‘bonlar tomonidan yetishtiriladigan erta gullaydigan o‘simlik hisoblanadi. Bu yovvoyi o‘simlik Oltoyda va Osiyoning tog‘li hududlarida joylashgan. Ammo Suvorov piyoz Anzur (*allium suvorivii*) piyozining har qanday iqlim sharoitiga osongina moslashish qobiliyati uni mamlakatning turli mintaqalarida etishtirishga imkon berdi. O‘simlik lola va za‘faron bilan birga erta gullashi, shuningdek, inson salomatligi uchun foydali xususiyatlari uchun qadrlanadi.

Bu o‘simlik iste’mol qilinadigan o‘simlik, lekin uni ma'lum bir vaqt ichida iste’mol qilinadi. Anzur (*allium suvorivii*) piyozining o‘simliklari erta bahorda, qor hali to‘liq erimagan paytda boshlanadi. Aynan shu vaqtida o‘simlikning vitaminli ko‘katlari qadrlanadi, yosh barglar o‘zlarining shiraliligi va nozik tuzilishi bilan ajralib turadi. Anzur (*allium suvorivii*) pishgan piyozini, undagi foydali komponentlar ko‘p bo‘lishiga qaramay, yangi iste’mol qilinmaydi va uni faqat qayta ishlashdan keyin iste’mol qilish mumkin. U kimyoviy tarkibi boy o‘simlik bo‘lib, barglari va o‘simlikning yer osti qismida vitaminlar, mineral komponentlar majmuasi, shuningdek, efir moylari, qandlar, alkaloidlar, saponitlar mavjud.



*2-rasm. Anzur (*allium suvoriwii*) piyozining urug'i va piyozboshlari*

O'simlikning foydali xususiyatlarga boy sanaladi. Masalan, immun tizimini mustahkamlaydi, miya faoliyatini yaxshilaydi, miya faoliyatini yaxshilaydi, organizmning infektsiya va bakteriyalarga chidamlilagini oshiradi, shilliq chiqishini rag'batlantiradi, anestetik ta'sirga ega, xotirani mustahkamlaydi, metabolik jarayonlarni faollashtiradi, qondagi shaker miqdorini meyorida saqlashga yordam beradi. Shunga qaramay Anzur (*allium suvoriwii*) piyozini ehtiyyotkorlik bilan istimol qilish kerak, chunki u allergiyaga olib kelishi mumkin. Shuning uchun organizmning reaktsiyasiga e'tibor berib, oz miqdorda ratsionga kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Inson organizmiga ta'siri jihatidan Anzur (*allium suvoriwii*) piyozi jenshen bilan taqqoslanadi.

Anzur (*allium suvoriwii*) piyozining yetishtirish agrotexnikasi. Anzur (*allium suvoriwii*) piyozi urug'i va piyozboshlaridan ekish mumkin. Ushbu usullarning har biri siz e'tibor berishingiz kerak bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Anzur piyozi, sarimsoq piyozini ekish vaqtida ya'ni kuzda ekin urug'ini ekish tavsiya etiladi, chunki ular muvaffaqiyatli unib chiqishi uchun qishki tinim davrini tuproq ostida o'tkazishi kerak.

Piyoz urug'lari mart oyining oxirida, aprel oyining boshida, kunduzi havo harorati ishonchli tarzda +5 °S bo'lganida unib chiqadi. Ko'chatlar iyun oyida quriy boshlaganda, ular qazib olinishi va piyozboshlar yaxshi quritilishi kerak. Kuzda 5 sm masofada yerga qayta ekilgan. Ekilgandan so'ng atrof muhit sharoitidan kelib chiqib noyabr oxiri, dekabr oyining boshida o'simlik unib chiqadi.



*3-rasm. Piyozboshdan ekilganda o'simlikning dekabr oyidagi holati*

O'simlikni iyun oyida, barglar keskin so'na boshlaganda piyozini qazish kerak. Keyin yaxshilab quritish va kuzgacha qoldirish kerak bo'ladi. Shundan so'ng, sarimsoq kabi bo'laklarga bo'linib, darhol doimiy joyga ekiladi. Anzurning eng yaxshi o'tmishdoshlari - karam, kartoshka, bodring. Suvorovning piyoz-sarimsoq yetishtiruvchidan alohida e'tibor talab etmaydi. Sug'orish uchun uzoq vaqt yomg'ir bo'lmasa, oqava suvdan foydalaniladi.

O'simlik mavsumining boshida 10 litr suv uchun 30 g miqdorida karbamid yoki ammiakli selitra kabi azot o'z ichiga olgan o'g'itlardan foydalanish tavsiya etiladi. Butun vegetatsiya davrida o'simlikning tagidagi tuproq yumshatilishi kerak. Bu ildizlarga havo kirishini ta'minlash va namlikning turg'unligini oldini olish uchun kerak bo'ladi.

O'simliklar dunyosida dorivor, ziravor va xushbo'y o'simliklarni o'rni beqiyosdir. Chunki dorivor o'simliklar boshqa o'simliklar singari turli muhitda o'sib vegitatsiya jarayonini amalga oshiravermaydi. SHuningdek dorivor o'simliklar o'sib rivojlanishi uchun ma'lum bir muhit tanlaydi. O'zbekiston farmatsevtika sanoatini dorivor va xushbo'y o'simliklarni xom ashyosiga bo'lgan talabi kun sayin ortib bormoqda. Bunday o'simliklarga: Anzur (*Allium suvoriwii*) piyozini dorivor tirnokgul, dorivor moychechak, namatak, valeriana, do'lana, zirk va boshqalar kiradi. Bular orasida Anzur (*Allium suvoriwii*) piyozini farmatsevtika, oziq-ovqat va meditsina sanotida o'zining keng qamrovda ishlatilishi bilan alohida ajralib turadi. Mazkur o'simliklar xom-ashyosini yetishtirish o'z navbatida O'zbekistonda oziq-ovqat va meditsina sanoatini xom-ashyosiga bo'lgan talabni ma'lum miqdorda qondiradi. Bu muammolarni ijobiyl tomonga hal etish bevosita bu o'simlikni yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish xom-ashyosini tayyorlash bilan bog'liq.

Anzur piyozi mayda bir yillik va ikki yillik piyozlar tabiiy holda o'sib chiqadi. Dastlabki piyozlari yoki ajralib chiqqan 3-5 yillik o'simlik bo'lakchalari diametri 1-4 sm gacha yetadi. Ularni qishdan oldin kuzgi sarimsoq piyoz bilan bir paytda sentyabr oyining



so'nggi dekadasi – oktyabr boshida ekiladi. Piyozlarni kattaligiga qarab har 20-25 sm oraliqda, yer ustki qismidan to piyozning uchki qismigacha 8-10 sm chuqurlikda ekiladi. Anzur o'simligi yorug'likka talabchan bo'lib, haddan ortiq namlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Anzur (*Allium suvorivii*) piyozinining sekretor tuzilmalari (piyozboshlar, barglar va gullar) kuzatilgan. anzur piyozi o'simligi mayin tabiiy elementlarga boy tuproqlarda yaxshi hosil beradi. Piyozboshlari yirik va silliq bo'lib shakllanadi. Bu o'simlik tarkibidagi antioksidantlar sababli istemol qilingan organim uchun turli xavfli o'sma va virusli kasalliklarda juda yaxshi samara ko'rsatadi.

### **XULOSA**

1. Yuqorida sharhlab o'tilgan barcha ilmiy adabiyotlar ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, dorivor va ziravor o'simliklarni mahsuldarligi va samaradorligini oshirish uchun keng qamrovli hamma tomonlama o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar anzur (*Allium suvorivii*) piyozining yetishtirishning optimal sxemasini tanlash bo'yicha yagona xulosa qilish imkonini beradi. Negaki, tadqiqotlar anzur (*Allium suvorivii*) piyozini yetishtirish texnologiyasini Toshkent vohasiga ham mos kelishini ko'rsatadi.

2. Tadqiqotlar davrida anzur (*Allium suvorivii*) piyozini yetishtirishda turli agrotexnik tadbirlar bilan bir qatorda sug'orish meyorlari, begona o'tlarga qarshi kurashish va uning rivojlanish davrini nazorat qilib borildi. Bunda anzur (*Allium suvorivii*) piyozini yetishtirishda harbir bosqich o'z vaqtida bajarilishi kerak ekanligi o'z isbotini topdi.

3. Anzur (*Allium suvorivii*) piyozining ma'lum bir navi dala tajribalarida oktabr oyining oxiri noyabr oyining boshlarida ekilsa yaxshi unuvchanlik namayon qildi. Agar uni bahorda ekadigan bo'lsak natija ololmaymiz. Sababi urug'lar yirik bo'lganligi sababli tinim davrini yer ostida o'tkazishi kerak bo'ladi. Natijada anzur (*Allium suvorivii*) piyozi urug'larini kuzda dalaga ekilganda yaxshi unib chiqishi mumkinligi aniqlandi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5853-son farmoni

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10-apreldagi "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishslash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4670-son qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli Farmoni. Toshkent, "O'zbekiston", 2017-yil.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi "Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1047 sonli Qarori. Toshkent, "O'zbekiston", 2009 yil.

5. O'ZPITI «Dala tajribalari uslubiyati» - 2007 y



6. Вахобов Мамадамин. Агробиологические особенности и технологии выращивания лука анзура, репчатого лука и их семенников в Таджикистане: диссертация ... доктора Сельскохозяйственных наук: 06.01.01 / Вахобов Мамадамин; [Место защиты: Таджикский аграрный университет имени Шириншох Шотемур], 2018.- 259 с.

7. Красик В.М. Канон врачебной науки и системы лекарственной терапии в старой медицине. // Абу Али Ибн Сино (Авиценна). Канон врачебной науки. Книги о простых лекарствах. Ташкент: Из-во Академии наук Узб. ССР, 1986. -707 с.

8. Капранов, В. Мудрость веков. Душанбе: Ирфон, 1989. -304 с.

9. Федченко, В.Н. Очерки растительности Туркестана. М., 1925.

10. Сельскохозяйственный энциклопедический словарь. М.: Советская энциклопедия, 1989. -515 с.

11. Дадабоева, О. Лекарственные растения Северного Таджикистана: автореферат дис... .к.б.н. -Душанбе, 1967. -18 с.

12. Красная книга Таджикской ССР. -Душанбе: Дониш, 1988. 259 с.

13. Красная книга СССР: под ред. В.В. Чуваева. -М., 1978. -С. 459

14. Бакурас, Н.С., Шодмонходжаев, К.А., Ходжахонова, И.М. Рекомендации по выращиванию дикорастущего лука-анзура. -Ташкент: Фан, 1987. -С. 14.

15. Насретдинов, А. Восстановление естественных запасов горного лука-анзура//Сельское хозяйство Таджикистана, 1973, V, №7, С. 56-58.

16. Комиссаров, В.А., Черных, О.И. Лук-анзур в Подмосковье //Картофель и овощи. V, 1986. Nol. С. 47-48.

17. Кузнецов, А.В., Туголуков, В.П, Туголукова, Г.И. Лук-анзур//Картофель и овощи. V, 1982. №9. -С. 24-26.

18. Менгниев, А.Х. Дикий лук-анзур пора ввести в культуру // Картофель и овощи. V, 1990, V, №5, V. С. 26-27.

19. Методика определения экономической эффективности использования в сельском хозяйстве результатов научно-исследовательских и опытно-конструкторских работ, новой техники, изобретений и рационализаторских предложений. // 1979.V, №7. - С. 43

20. Вахобов М. Экономическая эффективность выращивания культуры лука - анзура на севере таджикистана. 2016 г. 100-106. с